



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 458 sahifa,
2-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilorom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari moslashuvining psixologik yondashuvi	254
G. R. Ibragimova, Abdulkarimova Dilfuza	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	258
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda sotsial intellekt va shaxslilik kamolotning o'zaro bog'liqligi	262
Avlayev Orif Umirovich	
AR texnologiyasi asosida kompyuter arxitekturasini o'qitishni takomillashtirishning pedagogik asoslari....	267
Saidkarimxonova Dilnozaxon Saidazizxon qizi	
Sun'iy intellektning ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash sifatini oshirishdagi o'rni	273
Ubbiyev Alisher Tairovich	
Inklyuziv ta'lim bo'yicha respublikada olib borilayotgan faoliyat	277
Sattorova Mohira Aminqulovna	
Tasviriy faoliyat jarayonida maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida emotsional intellektni shakllantirish .	281
Namzabayeva Lola Zakirovna, Malikova Umida Nurliboy qizi	
Sport maktablarida 12–14 yoshli gandbolchilarda to'pni ilish va uzatish texnikasini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish	285
Ismatullayeva Fotima Rustam qizi	



Методология изучения этнопсихологических аспектов понимания долга перед родителями: цели, задачи и гипотезы исследования	289
Эргашев П. С., Азимова Х. А.	
Uzluksiz ta'lim tizimida metakompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalari va ularning tasnifi	292
Xurramov Anvar Jumanazarovich	
Fundirlash konsepsiyasi – kelajak pedagoglarining asosiy poydevori	296
G'oyimov Umar Eshmurodovich	
Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodik ta'minotning hozirgi holati: tahliliy o'rganish	301
Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna	
Pedagogik metod: intellekt xaritalar yordamida lazerlarning amaliyotda qo'llanilish sohalarini vizuallashtirish	307
Olimjonova Nigina Sobirjon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish	312
G. R. Ibragimova, Normamatova Rayhona Alisher qizi	
Pedagogik o'yinlar va interaktiv faoliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni	317
Qodirova Sevara Shuxratovna	
Shaxs psixikasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	325
Boboyeva Maxsuda Ataxonovna, Rajapboyeva Ozoda Shuxrat qizi, Karimova Malohat O'rinboy qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning sifat samaradorligi	329
Hasanova Dilnora Rustam qizi, Ehnazarov Jo'raqul	
Integratsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirishning metodik tizimi	333
Boynazarova Munajat	
O'yin faoliyati orqali kasbga yo'naltirish mexanizmlari	337
Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona	
Модель методического сопровождения педагогов доо в развитии математической грамотности и логического мышления старших дошкольников на основе игровых технологий	340
Гаухар Джанпеисова	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash malakasini rivojlantirish muammolari va imkoniyatlari	347
Majidova Hilola Eshquvat qizi	
Формирование коммуникативной компетенции студентов на занятиях узбекского и иностранных языков: интегративный подход	351
Турланова Сауле Дадажановна	
Ta'lim jarayonida digital storytelling metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy yozuv kompetensiyasini shakllantirish	357
Maxsetova Zuxra Torebayevna	
Futbol mashg'ulotlarida kreativ yondashuvlarni qo'llash amaliyoti	361
Karimov Odiljon Baxadirovich	
Oliy ta'limda talabalarining kreativligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari (amaliy matematika yo'nalishi misolida)	364
Samatova Munira Dilshod qizi	
Подготовка к школе как условие развития коммуникативных умений у детей дошкольного возраста с тяжёлыми нарушениями речи	368
Ахмедова З. М., Абдурахмонова М. А.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga talaba motivatsiyaviy-qadriyatli munosabatlari tizimi shakllanganligi darajalari va ularning sifatiiy tavsifi	373
Ergasheva Matluba Burxonovna	
Ritmik va ijodiy gimnastika mashqlari orqali bolalarda estetik didni shakllantirish metodlari	378
Kamchiyev Salimberdi Xudayberdiyevich	

Interaktiv ta'lim platformalari asosida informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi.....	382
Karimov Feruz Raimovich	
Koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar	386
Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining media savodxonligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.....	389
Masharibova Lobar Rayimberganovna	
Duduqlanuvchi bolalarda verbal muloqot ko'nikmalarini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish.....	393
Mirtoeyeva Shohruza Ibjohimjon qizi	
Maktab voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish	396
Ortug'mat Jumanov, Zarina Abdusattarova	
Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish omillari va mexanizmlari.....	400
Raxmatova Nargiza Dolibayevna	
Bola nutqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy va ijobiy muhit omillari. XXI asr taraqqiyotida nutq faoliyatining shakllanishi.....	403
Ro'ziyeva Nozimaxon Oybek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini ijtimoiy-pedagogik faoliyatda rivojlantirish texnologiyasi.....	406
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Butayeva Gavhar Xudoyorovna	
Fan va tabiatni tanishtirish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rivojlantirish usullari	410
Sh. T. Musulmonova	
15-17 yoshgacha bo'lgan kurashchilarni yillik yuklamalarini taqsimlash	413
Qirgiboyev Shaxbozbek Aslidin o'gli, Xamidjonov Muhammadbobir Ulug'bek o'gli	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	416
Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	419
Toshpo'latova O'giloy Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni shaxsiy rivojlantirish.....	422
Turdiyeva Raxima Kurbanovna	
Matnli topshiriqlar vositasida ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	426
Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li, Isayeva Gulnur Shakirjanovna	
Методы исследования сенсомоторных эффектов и внимания у детей дошкольного возраста.....	432
Г. С. Алиходжаева	
Роль театрализованной деятельности в формировании представлений о родине у дошкольников ..	436
Г. С. Алиходжаева, У. О. Мамадалиева	
Логическое мышление детей 5–7 лет в вариативном дошкольном образовании: нормативные основания и концептуальная модель	440
Г. Э. Джанпеисова, В. В. Горбунова, Э. З. Убайдуллаева	
O'qitishning maqsad va vazifalarini talabalarning bo'lajak pedagogik faoliyatini modellashtirish sifatida ...	444
Murodova Umida Dilmurodovna	
Развитие прагматической компетенции аудирования с помощью инновационных технологий в обучении немецкому языку	449
Саидова Махсудахон Аббасовна	
Развитие профессиональной подготовки будущих воспитателей в системе высшего педагогического образования.....	452
Собирова Пошшаой Эркин кизи	
Современные педагогические концепции и структурные элементы игровых технологий.....	455
Хафизова Машхура Аминовна	



SUN'IY INTELEKTNING IXTISOSLASHGAN TA'LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARINI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Ubbiyev Alisher Tairovich

Nukus davlat pedagogika instituti rektori

Annotatsiya: Ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida bitiruvchilarni tayyorlash sifati bugungi kunda faqat o'quv fanlarini o'zlashtirish darajasi bilan baholanmaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyalarning shakllanishi, amaliy vazifalarni bajarish tezligi va aniqligi, xatolarni refleksiv tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, raqamli savodxonlik hamda kasbiy moslashuv kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sun'iy intellekt ushbu jarayonda universal yechim bo'lmas-da, ilmiy asoslangan va samarali boshqarilgan holda ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Uning imkoniyatlari individual o'quv trajektoriyalarini shakllantirish, adaptiv o'qitishni tashkil etish, real vaqt rejimida diagnostika o'tkazish, simulyatsion texnologiyalardan foydalanish, o'quv natijalarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish, portfel asosida baholash hamda ta'lim boshqaruvida ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda namoyon bo'ladi.

UNESCO hujjatlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan SDG-4 bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa inklyuzivlik va teng imkoniyatlarni ta'minlash, o'qituvchining kasbiy rolini mustahkamlash hamda raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan xavf va etik muammolarni tizimli boshqarishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ixtisoslashgan ta'lim muassasasi, bitiruvchi sifati, kompetensiya, adaptiv o'qitish, o'quv analitikasi, generativ AI, simulyatsiya, raqamli baholash, akademik halollik.

Abstract: In specialized educational institutions, the quality of graduate training is no longer evaluated solely through formal reports indicating that academic subjects have been "taught." Greater emphasis is now placed on indicators such as the development of professional and transversal competencies, the speed and accuracy of performing practical tasks, the ability to reflectively analyze errors, independent decision-making skills, digital literacy, and professional adaptability. In this context, artificial intelligence does not serve as a universal solution; however, when implemented in a scientifically grounded and systematically managed manner, it can significantly enhance the effectiveness of the educational process. Its potential is manifested in the design of individualized learning trajectories, the organization of adaptive instruction, real-time diagnostic assessment, the application of simulation technologies, automated analysis of learning outcomes, portfolio-based evaluation, and data-driven decision-making in educational management.

Policy and methodological documents of UNESCO emphasize that the integration of artificial intelligence in education should be aligned with the Sustainable Development Goals, particularly SDG-4. This alignment requires ensuring inclusivity and equitable access to quality education, strengthening the professional role of teachers, and systematically addressing ethical risks and challenges associated with the digital transformation of education.

Key words: artificial intelligence, specialized educational institution, quality of graduate training, competency-based approach, adaptive learning, learning analytics, generative AI, simulation technologies, digital assessment, academic integrity.



Аннотация: В специализированных образовательных учреждениях качество подготовки выпускника в современных условиях уже не ограничивается формальным показателем усвоения учебных дисциплин. На первый план выдвигаются такие индикаторы, как сформированность профессиональных и надпрофессиональных компетенций, оперативность выполнения практических заданий, способность к рефлексивному анализу ошибок, самостоятельному принятию решений, уровень цифровой грамотности и профессиональная адаптивность. Искусственный интеллект в данном контексте не выступает универсальным средством решения всех проблем, однако при научно обоснованном и управляемом внедрении способен существенно повысить результативность образовательного процесса. Его потенциал проявляется в формировании индивидуальных образовательных траекторий, организации адаптивного обучения, проведении диагностики в режиме реального времени, использовании симуляционных технологий, автоматизированном анализе учебных достижений, портфолио-ориентированном оценивании, а также в принятии управленческих решений на основе анализа образовательных данных.

В нормативно-методических документах ЮНЕСКО подчёркивается необходимость соотнесения внедрения технологий искусственного интеллекта с целями устойчивого развития, в частности с ЦУР-4, что предполагает обеспечение инклюзивности и равного доступа к качественному образованию, укрепление профессиональной роли преподавателя, а также системное управление рисками и этическими вызовами цифровой трансформации образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, специализированное образовательное учреждение, качество подготовки выпускника, компетентностный подход, адаптивное обучение, образовательная аналитика, генеративный ИИ, симуляционные технологии, цифровое оценивание, академическая честность.

KIRISH

Ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bitiruvchisi bozor talabiga "sertifikat" bilan emas, balki real ko'nikmalar bilan kiradi. Bu turdagi muassasalarda ta'lim mazmuni odatda tor yo'nalishga, amaliyotga, laboratoriya hamda ishlab chiqarish vazifalariga yaqin bo'ladi. Demak, sifat masalasi ham nazariy bilimlar yig'indisi bilan emas, balki kasbiy vaziyatni tushunish, algoritmik fikrlash, texnologik intizomga rioya qilish, xavfsizlik me'yorlariga amal qilish, muloqot va jamoada ishlash, muammoni tahlil qilish kabi ko'p qatlamli ko'rsatkichlar bilan baholalanadi.

Shunday sharoitda sun'iy intellekt "o'qituvchini almashtiradi" degan shov-shuvli fikrlar ko'proq reklama xarakteriga ega. Amaliy ehtiyoj esa boshqa: o'qituvchining vaqtini tejash, o'quvchining individual bilim bo'shliqlarini tez aniqlash, murakkab ko'nikmalarni kichik bosqichlarga ajratib mashq qildirish, baholash jarayonini yanada adolatli qilish hamda ta'lim jarayonini boshqarishda ishonchli ma'lumotlarga tayanishdir.

UNESCOning 2021-yildagi yo'riqnomasida sun'iy intellekt ta'limdagi yirik muammolarni yumshatishi mumkinligi bilan birga, ushbu texnologiyalar tengsizlikni kuchaytirib yubormasligi uchun siyosiy va institutsional boshqaruv zarurligi alohida ta'kidlanadi^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, Al'ning ta'limga kirib kelishi ikki yo'nalishda kechmoqda: Al ta'limning vositasi sifatida va Al o'rganiladigan mazmun sifatida. UNESCOning 2021-yildagi yo'riqnomasida Al'ni o'qitish va o'rganishda qo'llash (adaptiv platformalar, aqlli repetitorlar, o'quv analitikasi, ta'lim boshqaruvi) bilan bir qatorda, jamiyatning Al davriga tayyorligi uchun "Al savodxonligi"ni shakllantirish strategik vazifa sifatida ko'riladi^[1].

OECD Digital Education Outlook 2023 hisobotida esa raqamli ekotizim, ma'lumotlar boshqaruvi, algoritmik tizimlar va generativ AI bo'yicha "yo'riq va himoya to'siqlari" tizimli siyosat masalasi sifatida tahlil qilinadi hamda turli mamlakatlarda tartibga solish va tavsiyalar shakllanayotganligi ko'rsatiladi [3]. UNICEF esa bolalar bilan bog'liq risklarni keng yoritib, generativ AI fonida zararli kontent, "soxta do'st" tipidagi botlar, manipulyativ tavsiyalar, huquqlar va himoya talablari kuchayishini qayd etadi. Bu masala ixtisoslashgan ta'limning o'smir va yoshlar segmenti uchun ham bevosita dolzarbdir [5].

Empirik kuzatuvlar ham jarayon tez o'zgarayotganini ko'rsatadi. OECDning 2025-yilgi hisobotida Shveysariyada 8–18 yoshdagi o'quvchilar kesimida generativ AI'dan sinfda foydalanish boshlang'ich bosqichda 8% bo'lsa, quyi o'rta bosqichda 30% va yuqori o'rta bosqichda 50% gacha yetishi qayd etiladi. Kasbiy yo'nalishdagi o'quvchilar orasida ham sezilarli ulush mavjudligi ko'rsatiladi^[4].

Shu hisobot TALIS ma'lumotlariga tayangan holda o'qituvchilar generativ AI'dan ko'proq mavzuni tez tushunish va jamlash, dars rejasi hamda o'quv materiallarini yaratishda foydalanayotganini, ularning bir qismi esa baholash va o'quvchi natijalarini tahlil qilish jarayonlariga ham kirishayotganini ko'rsatadi^[4].

Boshqacha aytganda, Al'ni taqiqlash orqali vaqt yutib bo'lmaydi: u allaqachon sinf eshigidan kirib kelgan. Endi esa uni aniq me'yorlar va maqsadlarga bo'ysundirgan holda samarali boshqarish zarur.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

AI o'qituvchini almashtirmaydi, lekin uning eng ko'p vaqt talab qiladigan ishlarini tartibga soladi: dars uchun variantli topshiriqlar tayyorlash, baholash mezonlarini bir xil qo'llash, kundalik monitoring olib borish, umumiy xatolar xaritasini tuzish, refleksiya savollarini shakllantirish. OECDning 2025-yilgi materiallarida o'qituvchilar AI'dan dars rejalari va resurslarini tayyorlashda yuqori ulushda foydalanayotgani qayd etilgani bejiz emas: bu ishlar ko'p vaqt oladi va ijodiy kuchni talab qiladi [4].

O'qituvchi vaqt yutsa, u aynan inson omili zarur bo'lgan jarayonlarga ko'proq e'tibor qaratishi mumkin: motivatsiya berish, tarbiyaviy ishlar, samarali muloqot, murakkab amaliy ko'nikmalarni ko'rsatish, jamoaviy vaziyatni boshqarish hamda etik qarorlar qabul qilish. Generativ AI bo'yicha UNESCO yo'riqnomasida ilgari surilgan "inson markazida" yondashuvi ham aynan shu maqsadni ko'zlaydi: texnologiya inson agentligini siqib chiqarmasligi, balki uni mustahkamlashi kerak [2].

Quyidagi jadval ixtisoslashgan ta'limda AI qo'llashning "sifat ko'rsatkichlari" bilan bog'langan minimal modelini taqdim etadi. Bunda maqsad shunchaki yangi dastur joriy etish emas, balki uni real natijalarga xizmat qildirishdir.

AI yechimi	Sifat ko'rsatkichi bilan bog'lanishi	Asosiy xavf	Boshqaruv choralari
Adaptiv mashqlar va diagnostika	O'zlashtirish tezligi, bo'shliqni yopish, individual progress	"Testga o'rgatish", ma'lumotlar xavfi	Kompetensiya xaritasi, minimal data, ruxsatlar
Simulyator va virtual laboratoriya	Amaliy ko'nikma, xavfsizlik, xatoni kamaytirish	Real muhitdan uzilish	Aralash format, real amaliyot bilan bog'lash
O'quv analitikasi	Davomat, faoliyat, risk guruhini erta aniqlash	Noto'g'ri talqin, stigmaga aylanish	Shaffof metrikalar, inson qarori ustuvor
Generativ AI yordamchisi	Matn, kod, reja, portfelni tahrir	Plagiat, "soxta ustalik"	Akademik halollik siyosati, izohli ishlash
Avtomatlashtirilgan baholash	Adolat, tezkor feedback	Xolislik, diskriminatsiya	Rubrika, audit, apellyatsiya tartibi

Bu modelning eng muhim qoidasi shundan iboratki, AI qarori hukm emas, balki signal hisoblanadi. Signalni pedagogik, psixologik va kasbiy kontekstda talqin qiladigan subyekt baribir o'qituvchi va muassasa tizimi bo'ladi. OECDning 2023-yildagi raqamli ta'lim ekotizimi konsepsiyasida ham boshqaruv, ma'lumotlar va algoritmlarga bo'lgan ishonch masalasi "infratuzilma" bilan bir qatorda muhim yo'nalish sifatida ko'riladi [3].

Ixtisoslashgan muassasalarda AI'ni joriy etish uchta qatlamda rejalashtirilsa, natija yanada barqaror bo'ladi.

Birinchi qatlam – didaktik dizayn: kompetensiyalarni kichik komponentlarga ajratish, har bir komponent uchun indikatorlar, rubrikalar, minimal amaliy topshiriqlar banki hamda "xato turlari katalogi"ni yaratish.

Ikkinchi qatlam – texnologik va ma'lumotlar dizayni: qaysi ma'lumotlar yig'iladi, ular qancha muddat saqlanadi, kimlar tomonidan ko'riladi, qanday anonimlashtiriladi hamda qanday audit qilinadi.

Uchinchi qatlam – kadrlar va madaniyat: o'qituvchilarni AI savodxonligi, prompt madaniyati, akademik halollik va etik xavfsizlik bo'yicha qayta tayyorlash, talabalarga esa AI'dan "o'rniga bajarish" vositasi sifatida emas, balki "yordamchi" sifatida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

OECDning 2025-yilgi hisobotida ham o'qituvchilarni AI bo'yicha tayyorlash ulushi alohida ko'rsatilib, ta'lim tizimlari bu ehtiyojga tez javob berayotgani qayd etiladi [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Akademik halollik masalasi ixtisoslashgan ta'limda yanada keskin ahamiyat kasb etadi, chunki amaliyotda xato narxi yuqori: noto'g'ri elektr ulanishi – xavf, noto'g'ri farmakologik hisob – xavf, noto'g'ri texnik chizma – xavf. Shuning uchun "AI bilan yozib kelish"ga qarshi kurash faqat taqiqlash bilan cheklanmaydi, balki baholash jarayonini qayta loyihalashtirishdan boshlanadi. Bunga ochiq resursli imtihonlar, jarayonni aks ettiruvchi portfellar, amaliy ko'rsatmalar, laboratoriya protokollari, og'zaki himoya hamda ko'nikmalarni real vaziyatda bajarish kabi yondashuvlar kiradi. UNESCOning generativ AI bo'yicha yo'riqnomasida ta'lim muassasalari foydalanilayotgan vositalarni pedagogik va etik jihatdan tekshirishi, ma'lumotlar himoyasi hamda yoshga mos cheklovlarini hisobga olishi zarurligi ta'kidlanadi [2]. UNICEF hujjatlarida esa bolalar va o'smirlar bilan ishlaydigan tizimlarda "child-centred" tamoyillari, himoya va ishtirok masalalari majburiy mezon sifatida ko'rsatiladi [5].

AI'ning "xolisligi" ham ta'lim sifati tarkibining muhim qismi hisoblanadi. Agar algoritmi noto'g'ri ma'lumotlar asosida o'qitilgan bo'lsa yoki muassasa kontekstiga moslashtirilmagan bo'lsa, u ayrim guruhlarini doimiy ravishda "past natijali" sifatida ko'rsatishi mumkin. Bu esa motivatsiyani pasaytiradi va ijtimoiy tengsizlikni

kuchaytiradi. UNESCOning 2021-yildagi yo'riqnomasida aynan shunday xavflarni oldini olish uchun past va o'rta daromadli davlatlar manfaatlarini global muvohajarlarda inobatga olinishi, arzon va inklyuziv yechimlar yaratilishi hamda siyosat "foyda-xavf" muvozanati asosida qurilishi zarurligi ta'kidlanadi ^[1]. Muassasa darajasida esa audit, apellyatsiya mexanizmlari, aniq rubrikalar hamda inson qarorining ustuvorligi minimal himoya paketi sifatida qaraladi.

O'zbekistonda bu jarayonni "strategiya-amaliyot" ko'prigi orqali bog'lash muhim ahamiyatga ega. "Raqamli O'zbekiston – 2030" farmonida raqamli ta'lim hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'l xaritasi yo'nalishlari belgilab berilgan ^[6]. Bu esa ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga ikki muhim vazifa yuklaydi: birinchisi, infratuzilmani "kompyuter mavjud" darajasidan "barqaror platforma, xavfsiz ma'lumotlar va tizimli integratsiya" darajasiga olib chiqish; ikkinchisi esa ta'lim sifatini AI yordamida o'lchash va boshqarish madaniyatini shakllantirishdir.

Masalan, muassasa "bitiruvchi sifati paneli"ni yuritishi mumkin. Bu panel orqali kompetensiya xaritasida qaysi bo'limlar sust ekani, qaysi modullarda xato turlari ko'paygani, qaysi guruhlarda motivatsiya pasaygani hamda amaliyotdan qaytgan fikr-mulohazalar tahlil qilinadi. Ushbu panel "jazolash" uchun emas, balki resurslarni to'g'ri taqsimlash, o'qituvchilarga metodik yordam berish va o'quv rejasini yangilash uchun qo'llanilsa, AI haqiqatan ham ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Natijani o'lchash bo'yicha taklif etiladigan mezonlar uch blokda jamlanadi.

Birinchi blok – o'quv natijalari: kompetensiya testlari, amaliy normativlar, simulyatoridagi xato chastotasi, laboratoriya protokoli sifati hamda portfelning dalilliligi.

Ikkinchi blok – jarayon samaradorligi: o'qituvchi va talabning vaqt sarfi, fikr-mulohaza (feedback) berish tezligi, individual rivojlanish grafigi hamda risk guruhlarini erta aniqlash.

Uchinchi blok – xavfsizlik va ishonch: akademik halollik holatlari, ma'lumotlar bilan ishlashda yuzaga kelgan incidentlar, algoritmik xatolar bo'yicha apellyatsiya statistikasi va foydalanuvchi qoniqishi.

OECDning 2023-yilgi yondashuvida ham raqamli tizimlar "faqat texnika" emas, balki boshqaruv va ishonchni talab qiladigan murakkab ekotizim ekani alohida ta'kidlanadi ^[3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun'iy intellekt ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash sifatini oshirishda uchta kuchli mexanizm orqali ishlaydi:

- birinchisi – individual o'qitish va tezkor diagnostika;
- ikkinchisi – amaliy ko'nikmalarni simulyatsiya va aralash baholash orqali kuchaytirish;
- uchinchi – ta'lim boshqaruvida ma'lumotga asoslangan qarorlar qabul qilish.

UNESCO hujjatlarida AI'dan foydalanish ta'limdagi tenglik, inklyuzivlik va sifat maqsadlariga bo'ysundirilishi kerakligi, generativ AI esa ma'lumotlar maxfiyligi, yoshga moslik, institutsional validatsiya va inson markazida yondashuvni talab qilishi aniq belgilangan ^{[1], [2]}.

OECD esa real amaliyotda generativ AI'dan foydalanish tez sur'atlar bilan kengayayotganini ko'rsatib, muassasalar ushbu jarayonni me'yorlashtirishga majbur ekanini ta'kidlaydi ^[4].

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasidagi raqamli ta'lim vazifalari ixtisoslashgan muassasalar uchun ham imkoniyat, ham mas'uliyat hisoblanadi. Bu jarayonda infratuzilmani mustahkamlash, kadrlarni tayyorlash, ma'lumotlar boshqaruvi va akademik halollik siyosatini yangilash, shuningdek AI'ni "vositalar ko'paydi" uchun emas, balki "natijalar o'zgardi" tamoyili asosida qo'llash muhimdir.

Xulosa juda soddadir: AI ta'limda direktor emas, balki yordamchi. Yordamchi esa intizomni yaxshi ko'radi. Intizom bo'lmasa, u barcha ishni "o'zi bajarib beradi", natijada bitiruvchi hammasini biladi, ammo ish joyida hech narsani qila olmaydi. Intizom mavjud bo'lsa, AI o'qituvchi va talabning imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ta'lim sifatini real ko'rsatkichlar asosida oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Miao F., Holmes W., Huang R., Zhang H. AI and education: Guidance for policy-makers. Paris: UNESCO, 2021. 50 p. ISBN 978-92-3-100447-6.
2. Miao F., Holmes W. Guidance for generative AI in education and research. Paris: UNESCO, 2023. 48 p. ISBN 978-92-3-100612-8.
3. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023. 414 p.
4. Borgonovi F., Bastagli F., Ochojska M., Piumatti G. AI adoption in the education system: International insights and policy considerations for Italy. OECD Artificial Intelligence Papers, No. 52. December 2025. 101 p.
5. UNICEF Innocenti – Global Office of Research and Foresight. UNICEF Guidance on AI and Children 3.0. Florence: UNICEF Innocenti, December 2025. 60 p.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-6079, 05.10.2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.